

MUSIQIY-NAZARIY BILIMLARNI O'ZLASHTIRISHDA ASARLARNI TAHLIL QILISHNING AHAMIYATI

M.Z.Eshmurodov¹

1. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O'zbekiston

Eshmurodov M.Z.
Musiqi ta'limi jo'rnavozi,
O'zbekiston-Finlandiya
pedagogika instituti,
Samarqand, O'zbekiston
muhridin22707@mail.ru

Annotatsiya: Umumta'lim maktablarining "Musiqi madaniyati" darslarida o'quvchilarni umummusiqiy madaniyatini shakllantirish juda ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bu o'rinda musiqi tinglash, qo'shiq kuylash, nazariy savodxonlik (nazariy ma'lumotlarni egallash) asosiy o'rinni egallaydi. Shu ma'noda ushbu omillar ichidagi musiqi tinglash faoliyatida esa deyarli barcha faoliyatlarda olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlar o'z ifodasini topadi. Ushbu maqolada musiqi tinglash va tahlil qilish orqali o'quvchilarga musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishda asarlarni tahlil qilishning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maktab, musiqi madaniyati, dars, o'quvchi, musiqiy omillar, musiqi tinglash, qo'shiq kuylash, nazariy savodxonlik, faoliyat turlari, o'quv tarbiyaviy ishlar, asarlarni tahlil.

Аннотация: Формирование общей музыкальной культуры учащихся классов «Музыкальная культура» общеобразовательных школ зависит от многих факторов, среди которых главное место занимает слушание музыки, пение, теоретическая грамотность (овладение теоретической информацией). В этом смысле деятельность по прослушиванию музыки в рамках этих факторов выражается практически во всех видах деятельности. В данной статье широко освещено значение анализа произведений в приобретении музыкально-теоретических знаний учащихся путем прослушивания и анализа музыки.

Ключевые слова: школа, музыкальная культура, урок, ученик, музыкальные факторы, слушание музыки, пение, теоретическая грамотность, виды деятельности, воспитательная работа, анализ произведений.

Abstract: Formation of general musical culture of students in "Music culture" classes of secondary schools depends on many factors, including listening to music, singing, theoretical literacy (acquiring theoretical information). takes the main place. In this sense, the activities of listening to music within these factors are expressed in almost all activities. In this article, the importance of the analysis of works in the acquisition of music-theoretical knowledge for students by listening and analyzing music is widely explained

Keywords: school, music culture, lesson, student, musical factors, listening to music, singing, theoretical literacy, types of activities, educational work, analysis of works.

KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub o'zgarish va yangilanishlar samarasi kelajagimiz bunyodkorlari bo'lishi yoshlarga yuksak ma'naviy,

mustaqil fikrlovchi, Vatan istiqboli uchun ma'suliyat kabi oliyjanob fazilatlarni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Yosh avlod tarbiyasiga e'tibor, ayniqsa, ta'limning dastlabki bo'g'inlaridan boshlab birinchi navbatda xalqimiz madaniyati, tarixi, san'ati, adabiyoti, tili va milliy qadiryatlarga muhabbat, ularni qadrlay oladigan, qalban his qiladigan, kelgusida rivojlantira oladigan ma'naviy yetuk, intellectual salohiyatli shaxslar sifatida kamolga yetkazishga ustuvor ahamiyat berilayotganligi bejiz emas[2].

Umumta'lim maktablarining "Musika madaniyati" darslarida o'quvchilarni umummusiqiy madaniyatini shakllantirish juda ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bu o'rinda musika tinglash, qo'shiq kuylash, nazariy savodxonlik (nazariy ma'lumotlarni egallash) asosiy o'rinni egallaydi. Ushbu omillar ichidagi musika tinglash faoliyatida esa deyarli barcha faoliyatlarda olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlar o'z ifodasini topadi, desak xato bo'lmaydi. Chunki, o'rganilayotgan qo'shiq ham avval tinglanadi va u haqidagi ma'lumotlar musika tinglash va tahlil qilish orqali o'quvchilarga yetkaziladi. Shu jarayonda bevosita nazariy ma'lumotlarga ham tushuncha va tavsiflar berib boriladi.

Umumta'lim maktablaridagi musika madaniyati darslarini kuzatish va pedagogik tahlillar ko'plab o'qituvchilarni darslarni "Davlat ta'lim standarti" va fan dasturi talab va me'zon darajasida o'tmayotganliklarini, darslarni metodik va pedagogik nuqtai-nazardan tog'ri tashkil etishmayotganligi (ko'p hollarda faqat qo'shiq kuylash faoliyati bilan cheklanib qolayotganligi)ni ko'rsatadi. O'quvchilarning nazariy savodxon, amaliy ijrochilik ko'nikma va malakalarini shakllantirish vazifalari esa, eng avvalo, musiqani to'kaqonli idrok eta oladigan, turli janr va uslubdagi musika asarlarini tahlil qilish bilan unga o'z munosabatini bildiradi oladigan, baholay oladigan (musiqiy-badiiy did), asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini tushunib kuylay va ijro eta oladigan darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega qilib tarbiyalashni taqozo etadi.

Musika fan sifatida o'qitiladigan ta'lim tizimining barcha bo'g'inlariga nisbatan umumta'lim maktablaridagi musika ta'limi o'zining tashkiliy, metodik hamda mazmun-mohiyati (predmeti) bilan boshqa fanlarni o'qitilishidan jiddiy farq qiladi.

Bu o'ziga xoslik musika darsini eng avvalo bir biriga mantiqiy bog'liq, darsning bosh mavzusi maqsad va vazifalarini yoritishga yo'naltirilgan beshta faoliyatlar asosida tashkil etilishida o'z ifodasini topadi. Bu faoliyatlar pedagogik maqsad, vazifalari, uyushtirilishiga ko'ra aslida darsning bosh mavzusining mazmuni va mohiyatini ochib berishga qaratilganligi bilan darsni sifat va samaradorligini ta'minlash, qiziqarli va mazmunli kechishi, provardida o'quvchilarning musika madaniyatini shakllanishiga xizmat qiladi. Dars davomida olib boriladigan ta'limiy faoliyatlar mustaqil jarayonlar ko'rinishida bo'lishi bilan birga, ularni bir biri bilan uzviy aloqadorlikda olib borish ushbu fanni o'qitilishining o'ziga

xos qonuniyatlaridan kelib chiqadi [3]. Musiqa darslaridagi qo'shiq kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash boshlang'ich sinflarda qo'shimcha ravishdagi musiqaga ritmik jo'r bo'lish hamda bolalar cholg'u asboblari ijro etish o'quvchilar tomonidan musiqiy nazariy bilimlarni, amaliy ijrochilik bilan bog'liq ko'nikma malakalarini, bilimlarni qiziqish va ishtiyoq bilan puxta o'zlashtirishga keng imkoniyat yaratadi.

Darsning mazmuni, mavzusi va xususiyatidan kelib chiqqan holda biror bir faoliyat asosiy o'ringa chiqib qolishi ham mumkin. Lekin, darsning tuzulishi asosan, mavzuga oid nazariy bilim, amaliy ijrochilik bilan belgilanadi. O'quvchilar dars davomida biror musiqa asarini tinglashadi.

Ushbu jarayonda ular musiqaning g'oyaviy-badiiy mazmuni, mualliflari, yaratilgan davri, ijro uslubi, qaysi mahalliy uslubga xosligi, kompozitori, bastakorlik ijodi mahsuli ekanligi, janri, tonalnosti, o'lchovi, shakli kabi ma'lumotlar bilan tanishadilar. Bu esa, o'quvchilarni umummusiqiy va musiqiy-nazariy savodxonligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Darsning amaliy ijrochilik, ya'ni qo'shiq kuylash (xor bo'lib) jarayonida, o'quvchilarni vokal-xor kuylash malakalarini egallashlari uchun nota yozuvi, dinamik belgilar, dirijorlik qoidalaridan xabardor bo'lishlari zarur. Musiqa savodi faoliyatida dastur va darslikka kiritilgan nazariy bilimlar o'quvchilarni musiqa fani bo'yicha zarur bilim, ko'nikma, malakalarni, bir so'z bilan aytganda musiqa madaniyatini yaxlit holda egallashlarini ta'minlaydi.

Musiqa darslarini aytib o'tilgan faoliyatlar doirasida tashkil etishini biz bir darsning tuzilishi misolida ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

Dars mavzusi: Musiqaning ifoda vositalari.

Darsning turi: Amaliy, fanlararo bog'liqlik.

Ta'limiy maqsad: Musiqaning ifoda vositalari haqida tushuncha berish, ovoz sozlovchi mashqlar bajarish, yangi qo'shiq o'rgatish, *musiqiy asar tinglash, tahlil qilish, oldingi o'tilgan mavzularni takrorlash va mustahkamlash.*

Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarning musiqiy idroki, didi, dunyoqarashi va musiqiy madaniyatini shakllantirish, musiqa asarlarini idrok etish va ular haqida bilishga qiziqish uyg'otish, tinglash va o'rganilgan qo'shiq, g'oyaviy-badiiy mazmuni vositasida axloqiy fazilatlarini shakllantirish.

Ta'lim vositalari: Konspekt, nota yozuvlari, darslik, qo'shiqlar to'plami, video, audio yozuvlar, cholg'u asboblari.

Darsning tashkiliy qismi:

1. Sinfni uyushtirish;
 - musiqiy kirish;
 - yo'qlama qilish;
 - dars mavzusini e'lon qilish;

2. Darsning borishi:

- amaliy ishlar;
- ovoz sozlash mashqlari;
- oldingi mavzuni mustahkamlash;
- notaga qarab kuylash;

3. Yangi materiallarni o'rganish:

- o'rganilgan qo'shiqni e'lon qilish;
- qo'shiq haqida qisqacha suhbat;

4. Musiqa savodiga oid bilimlarni o'zlashtirish:

5. Musiqa tinglash, tahlil qilish.

6. Bolalar musiqa cholg'ularda jo'r bo'lish va ritmik harakatlar bajarish.

7. Ijod vazifalar: mustaqil tarzda kuyga jo'r bo'lish uchun qaysi chog'u mosligini aniqlash, unga tavsif berish, janrni aniqlash.

8. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

9. Uyga vazifa berish: qo'shiq matnini yodlash, musiqaning ifoda vositalariga misollar yozib kelish.

Ko'rinib turibdiki, birgina dars davomida bajariladigan ta'limiy ishlar ko'lami ancha keng, buning uchun o'qituvchi vaqt me'yorini hisobga olishi va ulardan unumli foydalanishi muhim rol o'ynaydi.

Musiqa darsini shu tarzda, ya'ni faoliyatlar uyg'unligida tashkil qilish o'quvchilarning musiqiy-nazariy bilimlarni va amaliy ijrochilik malakalarini egallashlariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu bois musiqa o'qituvchisi musiqa darsini tashkiliy-pedagogik xususiyatlari va dars o'tishi metodikasini puxta egallagan bo'lishi talab etiladi.

Endi musiqiy faoliyatlar (asosiy faoliyatlar) ga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

1. O'qituvchilarning musiqiy-nazariy bilimlar tizimida musiqa tinglashni yetakchi faoliyat sifatida baholash o'rinli bo'ladi. Musiqa madaniyatini egallash, dunyo musiqa san'ati durdonalari, milliy xalq musiqa me'rosi, zamonaviy janrlarda yaratilgan asarlar bilan tanishish, shu jarayonda musiqiy-nazariy bilimlarni egallash, (nota yozuvi, ifoda vositalari), o'quvchilarda musiqaga qiziqish uyg'otish musiqani tinglash va tahlil qilish orqali kechadi. "Musiqani sevish, undan badiiy-estetik zavq olish uni tinglash kerak", - degan edi, rus kompozitori D.Shostakovich. Vatan, do'stlik haqida, mehnat va jismoniy hamda amaliy faoliyatlar mavzusidagi asarlarni tinglash o'quvchilarga ijobiy ta'sir qiladi. O'quvchi tinlangan musiqa yoki san'at asari haqida birorta savol bermasa, unda biror hissiyot vujudga kelmasa, shaxsiy hissiyot va munosabat bilan bog'lanmagan xabar tarzidagi aloqagina paydo bo'lsa, demak, vazifa bajarilmagan maqsadga erishilmagan hisoblanadi.

Asarni bilishning ikkinchi bosqichida o'quvchi asar haqidagi o'z fikrini aytishi, uning g'oyaviy-badiiy mazmuniga baho berishi, asarning xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish kerak. Bunda musiqa nazariyasi,

tarixi, musiqa asarini tahlil, vokal-xor, cholg'ushunoslik, ona-tili va adabiyoti, mualliflar haqidagi bilimlar mujassamlashadi. Musiqa tinglagandan so'ng o'quvchilar ijroning yakkanavozlik, jo'mavozlik, chog'u so'zlari, ularni ovoz tembridan ajrata olishlari kerak bo'ladi. Bu jarayonda ularning estetik madaniyati, badiiy-musiqiy didi va tafakkuri rivojlanadi.

O'quvchilarning musiqani qabul qilish malakalarini shakllantirish, uning ifodaviy "tili"ni tushunish, har bir o'quvchining o'z sevimli musiqiy asarlari doirasini paydo qilish, ularda musiqiy asarlarning mualliflariga nisbatan hurmat hissini uyg'utishi, mumtoz va maqom musiqalariga nisbatan qiziqishini kuchaytirish muhim vazifalardandir.

Musiqiy ta'limning boshlang'ich bosqichida musiqa tinglashga qo'yiladigan asosiy vazifalar ikkita yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1. Har xil mazmun va janrdagi asarlar bilan tanishish, musiqiy zahira to'plash.

2. Musiqiy termin va tushunchalarni (nazariy bilimlarni) egallash.

Ma'lumki, o'quvchilar oilada jamoatchilik joylarida hafta davomida ko'plab musiqa tinglaydilar. Lekin haftasida bir marta o'tiladigan bir soatlik dars davomidagi tinglangan musiqaning pedagogik maqsadga yo'naltirilganligi, asar tinglangandan so'ng u haqidagi ma'lumotlar, musiqiy tahlil uni ongli ravishda idrok etishga olib keladi.

2. Jamoa (xor) bo'lib kuylash o'quvchilarni qo'shiq kuylashga o'rgatish, musiqiy tarbiyaning eng muhim maqsadi va vazifasidir. Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash o'quvchilarni badiiy-estetik kamolotida katta rol o'ynaydi. Birinchidan, qo'shiq muayyan mavzuda yaratilgan bo'ladi, ikkinchidan ularda inson ruhiyati, kechinmalari o'z ifodasini topadi. Qo'shiq mazmunidagi g'oyaviy-badiiy g'oyalar o'quvchilarda hayotni anglash, badiiy tafakkur, dunyoqarashlarini o'sishga, axloqiy fazilatlarini kamol topishiga ijobiy ta'sir etadi, ularning tashabbuskorlik, fantaziya, qo'shiqchilik ovozini, musiqiy xotira, vokal-xor malakalarini o'stiradi.

Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirishning qo'shiq kuylash jarayonida o'quvchilarga o'rganilgan (kuylanadigan) qo'shiq o'qituvchi ijrosida (yoki musiqiy yozuvda), chog'u asbobi jo'rligida eshittiriladi. Bu o'quvchilarda qo'shiq haqidagi dastlabki ta'surotlarni hosil qiladi. Shundan so'ng o'qituvchi tanlangan qo'shiqning yaratilishi haqida, mualliflari, o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuncha beradi. Keyin o'quvchilar bilan birgalikda qo'shiq janri, shakli, ladi, o'lchovi aniqlanadi. So'ngra qo'shiqni o'rganishga kirishiladi.

Pedagogik va psixologik tadqiqotlardan ma'lumki, ijodiyotni shakllantirishning barcha turlariga diqqat, xotira, emotsional ko'tarinkilik va ijodiy fantaziya xosdir, bularsiz ta'lim jarayonini ham tasavvur qilib bo'lmaydi.

Musiqa darslarining har biri o'z xususiyatiga ko'ra takrorlanmas va ma'lum darajada o'ziga xos bo'ladi. Darsning har bir faoliyati, tashkiliy-

uslublari, maqsadi vazifalari, erishmoqchi bo'lingan natijalar avvaldan e'tiborga olingan bo'lishi lozim.

3. **Musiqa savodi** – musiqa ta'limi tizimidagi muhim jarayon hisoblanadi. O'quvchilar musiqa tinlash, qo'shiq kuylash ko'nikma, malakalarni nazariy bilimlar bilan uyg'un o'zlashtirgandagina ta'lim haqiqiy bilim olish maqsadini va mihiyatini ifoda etadi. Nazariy bilimlar faqat nota yozuvi bilan bog'liq qoidalarni o'rganishdan iborat bo'lib qolmay, o'quvchilarning umumiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi bilimlar majmuasini tashkil etadi. Musiqaning asl mazmuni, mohiyatini tushunib olishga yordam beradi va notaga qarab kuylash malakalarini hosil qilish hamda vokal-xor qobiliyatlarini o'sishiga olib keladi. Ovozlarni aniq talaffuz qilish, hamda tovush hosil qilish, ishlatish, nafas olish, sarflash, ko'p ovozda kuylash malakalarini shakllantiradi. Musiqa savodini o'rganishda qo'yiladigan asosiy metodik talab dars jarayonida olingan musiqiy-nazariy bilimlarni boshqa faoliyatlarda qo'shiq kuylash, musiqa tinglash va musiqaga ritmik jo'r bo'lishda qo'llay olishdan iborat. Har bir faoliyat o'quvchilar kuylayotgan, jo'r bo'layotgan yoki tinglayotgan asarlarning qaysi tonlikda yozilganligi, asarning tempi, o'lchovi va ritmi, shakli, dinamik belgilari kabilarini aniqlashlariga to'g'ri. Mana shu jarayonda musiqa savodiga doir bilimlarga tayanib ish tutiladi.

Umuman olganda, musiqa darsida belgilangan pedagogik maqsad va vazifalar, musiqiy faoliyatlar uzviy yaxlitlikda olib borilganda o'quvchilarda musiqiy-nazariy bilim, tushuncha va zarur ko'nikma, malakalarni shakllantirish jarayoni samarali kechadi.

Bu jarayonda quyidagi omillar rivojlanadi:

1. Musiqiy qobiliyatlar rivojlanadi;
2. Musiqani idrok etish malakalari o'sishiga erishiladi;
3. Vokal-xor kuylash malakalari rivojlanadi;
4. Musiqani elementar nazariy qoidalari o'rganiladi;
5. Turli janr, uslubdagi, xalq musiqa ijodi (folklor, mumtoz, maqom), zamonaviy (estrada, vokal, xor, ansambl, orkestr, simfonik musiqa, opera, balet) bilan tanishish, ular haqida muayyan tushuncha va tasavvurga ega bo'lishlariga erishiladi.
6. Musiqaga ritmik jo'r bo'lish; unga muvofiq harakatlar qilish bilan ijrochilik qobiliyatlar rivojlanishiga zamin yaratadi.
7. Musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi shaxsida ijodiy tafakkur, umumiy olganda musiqa madaniyati shakllanadi.
8. Musiqiy asarlarning g'oyaviy-badiiy mazmuni vositasida o'quvchi yoshlarda milliy g'oya va mafkuraga mos musiqiy dunyoqarashni shakllantirish, estetik va axloqiy tarbiyani amalga oshirishga erishiladi. Bu esa zamonaviy ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilayotgan talab va vazifalar mazmunini va mohiyatiga xosligi bilan muhimdir.

Pedagogikaning dedaktik prinsiplariga muvofiq har bir darsga ta'lim va tarbiya sistemasining qismi sifatida qarash lozim. Bunda

tarbiyaviy vazifalar ta'lim jarayonini to'ldiradigan qandaydir ikkinchi darajali omil hisoblanmasligi kerak. Binobarin, bu ish ta'lim bilan dealektik birlikni tashkil qiladi. G.Neygauz pedagog musiqachining o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishdagi vazifalarini ifodalab shunday yozgan edi: "O'quvchini aqlliroq, sezgirroq, halolroq, adolatliroq qilish amalga oshirsa bo'ladigan, to'la amalga oshirib bo'lmasa ham, davrimiz qonunlaridan, san'taning o'zidan kelib chiqqan holda har doim dealektik jihatdan o'zini oqlagan vazifadir" [4].

Xulosa qilib aytganda, insonning ma'naviy ongi, dunyoqarashini va ruhiy kamolotini shakllantirishda musiqa san'ati o'zining tarbiyaviy kuchi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Buyuk sharq allomalari e'tirof etganlaridek musiqa insonning axloqiy va estetik xususiyatlariga jozibali va betakror ta'sir etish xususiyati bilan pedagogik fanlar tizimida muhim o'rin tutadi. Shu bois ham musiqa ta'limida, xususan, umumiy o'rta maktab ta'limida ushbu fanni o'qitilishi eng avvalo tarbiyaviy maqsadlarni ko'zda tutadi va uning bosh vazifasini belgilaydi¹. Shuni alohida ta'kidlash joizki, respublikamizda amaldagi ta'lim tizimida umumiy o'rta-ta'lim eng muhim shakllantiruvchi bosqich bo'lib, bunda o'qitiladigan barcha fanlar va tarbiyaviy ishlar o'sib kelayotgan yosh avlodni ta'kidlab o'tilgan darajada kamol topishlari va shaxs sifatida shakllanishlarida muhim o'rin tutadi, hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu jihatdan, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan "Musiqa madaniyati" fani oldiga qo'yilgan o'quvchilarni madaniyatli, yuksak ma'naviyatli, milliy g'oya va mafkura ruhida shakllangan, milliy o'zligi, tili, ta'rixi, san'ati milliy qadriyatlarini teran anglaydigan va ularni qadrlay oladigan, badiiy va estetik didi rivojlangan shaxslar sifatida tarbiyalashdek keng ko'lamli vazifalar bugungi kunda ushbu fanni o'qitilishini ham zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-martda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi ma'ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. <https://www.pv.uz/uz/news/>
3. Soipova D. Musiqiy va musiqiy-nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish. –T., 2006.
4. Norxo'jayev N., Rashidova N., Umidova D. Musiqa. 3-sinf uchun darslik. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022.